

Xitoy Markaziy iqtisodiy rayonining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari

Mirsaidov M. – TDSHI 2-kurs Xitoyshunoslik
fakulteti “Xitoy iqtisodiyoti” kafedrası magistranti

2010-yilning I-yarmida Xitoy hukumati o'zining “Mamlakatni markaziy qismini (rayonlarni) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tomonidan ko'tarish” bo'yicha davlat siyosatini va bu boradagi o'z oldiga qo'yilgan majburiyatlarini yana bir bor tasdiqladi. Uning amalda implementatsiya (bajarilishi) qilinishi bo'yicha tashlangan qadamlardan biri sifatida Xitoy Davlat Kehgashining 2010 yilning 31-avgustida qabul qilingan “Rahbarlik bo'yicha ko'rsatmalar”ida mamlakatdagi ishlab chiqarishlarni ichki rayonlarga harakatlanishi to'g'risidagi hujjatni qayd etish mumkin.

Mazkur hujjatda ta'kidlanganidek, sanoat ishlab chiqarishini mamlakatning ichkari rayonlariga olib kirishni (qayta dislokatsiya qilish) muhimligi shundaki, Xitoyda moddiy ishlab chiqarish raqobatbardoshligini saqlab qolgan holda, ushbu industriyani agrar rayonlarga yaqinlashtirish hamda uning natijasida, birinchi navbatda, yoqori texnologik sektordagi bandlikni o'sishini ta'minlashdan iboratdir.

Ta'kidlash joizki, yoqorida tasdiqlangan hujjatlarda ko'rsatib o'tilganidek, dengiz oldi rayonlardagi ishlab chiqarishlarni mamlakatning ichki rayonlariga ko'chirish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan afzalliklar (ustivorliklar) va qo'llab-quvvatlanishlar Xitoy hukumatining bu borada nafaqat, ichki va dengiz oldi rayonlari orasidagi farqning chuqurlashib borayotganidan juda ham tashvishda ekanligini anglatmoqda.

Shu bilan birga Xitoy hukumati mamlakat dengiz oldi rayonlarining yaqin istiqbolda rivojlanishi, uning salohiyatini rivojlantirish mamlakatdagi ish haqini va yerni ijara narhini o'sishiga olib kelmasligi, mahalliy aholini turli qatlamlari daromadlaridagi mavjud farqlarning o'sishini keltirib chiqarish bilan bog'liq ijtimoiy qarama-qarshiliklar hamda mamlakatning dengiz oldi rayonlaridagi sanoat

industriyasi bosimi ostida nozik tabiiy-ekologik balansni buzilishini keltirib chiqaradigan konfliktlar va muammolarini hal etish bilan ham banddir.

Shunday qilib, Xitoyning ichki hududlari, asosan, markaziy rayoni Xitoy hukumatining mintaqaviy siyosatidagi 1960-1970-yillardan keyingi, XXI-asrda uni rivojlantirishdagi qilingan, birinchi yangi urinishi hisoblanadi va ushbu hududlar mamlakatning ustuvor rivojlanish hududlari qatoridan joy oldi hamda davlat tomonidan Xitoyni eng muhim dengiz oldi rayonlari qatori strategic maqsadga yo'naltirilgan deb qaralmoqda.

Umuman olganda, Xitoyning ichki rayonlarga nisbatan, olib borayotgan mintaqaviy rivojlanish strategiyasi Xitoy iqtisodiyoti bilan shug'ullanuvchi barcha rossiya xitoyshunoslari (A.V.Ostrovskiy, L.I. Kondrashova, Z.A.Muromseva, N.V.Korneychuk) tomonidan chuqur o'rganilib kelinmoqda. Ammo, lekin, Xitoy ichki rayonlariga nisbatan olib borilayotgan mamlakatning mintaqaviy rivojlanish strategiyasi evolyutsiyasi masalalari yetarlicha tahlil etilmagan, xususan, yaqin yillar ichidagi yirik siljishlarni e'tiborga olganimizda.

Oxirgi yillarda mazkur masalalar bilan XXRsi Ijtimoiy fanlar Akademiyasi olimlaridan Vey Xoykay, Chen Yaolar, Nankay universiteti olimlaridan Xu Ansen, Xao Shouy va Pekin Universiteti olimlaridan Syue Lin, Chen Syushan hamda XXR si davlat Kengashi qoshidagi ilmiy izlanish markazi xodimi Chjan Styunkolarning ham diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Xitoy olimlarining mamlakat ichki rayonlari to'g'risidagi ilmiy ishlarida ularni (mazkur rayonlar), nafaqat, umumiy sanoat va harbiy ishlab chiqarish bazalariga aylantirish to'g'risida, balki, oziq-ovqat va energetik bazalarga ham aylantirish borasida so'z yuritiladi. Undan tashqari, ushbu hududlarda ilg'or va zamonaviy uskunalarni namunalarini tayyorlash va ishlab chiqarishni tashkil etishni zaruriyati hamda yuqori texnologik tovarlarni eksportga chiqarish to'g'risida ham so'z yuritilmoqda.

Xozirgi kunda ichki rayonlar tarkibiga kirgizilgan 6 ta provinsiyalar: Shansi, Xenan, Xubey, Anxoy, Xunan va Tzyansi provinsiyalari umumiy maydoni 1,033 mln kv.km.dan iborat bo'lib, u mamlakat umumiy maydonining 10,7% ni tashkil

etadi, ulardagi aholining soni esa, 361,7 mln kishidan iborat, ya'ni, Xitoy aholisini 1/4 qismidan ko'prog'inini (28%) tashkil etadi¹.

Shuni ta'kidlash joizki, mazkur ichki rayonlarning barchasi qulay iqtisodiy-geografik holatlarga ega bo'lib, ular XXR sini dengiz oldi va uning g'arbiy rayonlari orasidagi kesimda muhim transport bo'gini rolini o'ynaydi. Biroq, Pekinning mazkur rayonlarning rivojlanishiga bo'lgan yuqori darajadagi e'tiborini ularning doimiy ravishdagi iqtisodiy qoloqligi bilan tushuntirsa bo'ladi.

1990-yillar mobaynida va XXI asr boshida Xitoy ichki rayonlarining iqtisodiyoti boshqa rayonlarga nisbatan, asosan dengiz oldi rayonlariga qaraganda, ancha sekin sur'atlarda rivojlanayotgan edi.

1990-yillarda mamlakatning ichki rayonlarini YaIM umumxitoy YaIM ning 23%ni, 2003-yilda atigi 19%ni, 2010-yilda 17%ni, 2013-yilda 21,2% ni tashkil etdi². O'z o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, mamlakat ichki rayonlaridagi aholini daromadlari yil sayin umumxitoy ko'rsatkichlariga nisbatan, pasayib borish tendensiyasini kuzatish mumkin (jadval 1.).

Jadval 1.

Xitoy ichki markaziy rayonlarining YaIM ko'rsatkichlari (2014y.)³

Provinsiyalar	YaIM mlrd.yuan	YaIM (aholi jon boshiga, yuanda)	Ulushi (%) da
Shansi	704,24	10123	2,3
Xenan	982,25	12072	5,6
Xubey	770,96	11599	3,1
Anxoy	746,74	11949	3,5
Xunan	761,23	12009	3,7
Tzyansi	749,59	10118	2,2
KHP	66324,04	22353	100

¹ Национальное бюро статистики Китая: <http://www.stats.gov.cn/english/> International Cooperation /201311/t2013 1112_459590.html,

² O'sha joyda

³ Люши нянь Чжунгодабяньге (1949-2015). — Пекин: Шицзечжишичубаньше, 2015, С.31

Markaziy Xitoy “mamlakatning xirmoni” deb nom olgan bo’lib, mazkur rayonlarda don yetishtirish mamlakat yalpi hosilining 40% ni beradi. Undan tashqari, mazkur mintaqa mamlakatning energetik bazasi hisoblanadi. Ulardan Shansi va Tzyansi xitoy sanoati uchun asosiy ko’mir yetkazib beruvchi rayonlardir. Shuni ta’kidlash lozimki, Markaziy rayonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha davlat siyosati va strategiyasini belgilab beruvchi asoaiy dasturiy hujjat – bu 2008-yilda XXR si davlat kengashi tomonidan tasdiqlangan hamda 2009-2015-yillarga mo’ljallangan “Xitoyning markaziy rayonlarini tezlikda qayta tiklash va rivojlantirish dasturi” hisoblanadi. Mazkur hujjatga binoan, ushbu muddatga mo’ljallangan asosiy strategik vazifalar quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Iqtisodiy o’sish sur’atlarini oshirish, iqtisodiy rivojlanish modelini o’zgartirish, mamlakat iqtisodiytida mintaqaviy iqtisodiyotning ulushini ko’paytirish, YaIM ning aholi jon boshiga to’g’ri kelishini oshirish va mamlakatdagi o’rtacha ko’rsatkichga yetkazish, urbanizatsiya koeffisientini 48% ga ko’tarish;

2. Iqtisodiyotdagi davlat sektorini mustahkamlash. Nodavlat sektorni intensiv tarzda rivojlantirish. Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. Innovatsion rivojlanishni qo’llab-quvvatlash;

3. Mazkur mintaqaning energetik salohiyatini rivojlantirish. YaIMni ishlab chiqarishga ketadigan energiya xarajatlarini 25% ga, suv resurslari xarajatlarini 30% ga qisqartirish. Ekin ekish maydonlari hajmini barqaror darajada saqlab turish. Suv toshqinlari xavfini oldini olish uchun, daryo infratuzilmasi tizimini modernizatsiyalash. Qulay ekologik holatni yuzaga keltirish.

4. Ijtimoiy uyg’unlikni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish. Yangi sotsialistik tarzda qishloqlarni rivojlantirish. O’rta va oily ta’limni sifatini oshirish. Meditsina xizmatlari sifatini yaxshilash va sog’liqni saqlash tizimini takomillashtirish. Aholini ijtimoiy sug’urtalashni va xizmat ko’rsatish madaniyatini darajasini oshirish. Aholi daromadlarini 9% ga ko’paytirish.

Mana shu yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun islohotlar va rivojlanish bo’yicha davlat kengashi qoshida XXR si davlat kengashi ruxsati bilan

mamlakatning markaziy rayonlarini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maxsus idoralararo qo'mita tuzilib, uning tarkibiga quyidagi 18 ta vazirlik va davlat kengashi tuzilmasi kiritildi: Islohotlar va rivojlantirish ishlari bo'yicha davlat qo'mitasi; ta'lim vazirligi; Fan va texnika vazirligi; moliya vazirligi; yer va tabiiy resurslar vazirligi; qurilish vazirligi; temir yo'llar vazirligi, aloqa vazirligi; suv xo'jaligi vazirligi; qishloq xo'jaligi vazirligi; tijorat vazirligi; Xitoy xalq banki, davlat mulkni boshqarish va nazorat qilish bo'yicha davlat qo'mitasi; Bojxona bosh boshqarmasi; bosh soliq boshqarmasi; atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha bosh boshqarmasi; Fuqaro aviatsiyasi bosh boshqarmasi; o'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi.

Mazkur qo'mita tomonidan 2015-yilgacha mo'ljallangan Markaziy Xitoyni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha aniq dastur ishlab chiqildi va 2010-yilda "Markaziy Xitoyni jadal tiklash va rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar" tasdiqlandi. Ushbu hujjatda markaziy rayonlarni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 8 ta asosiy vazifalar belgilandi: don bazasini tashkil etish; yoqori texnologik sanoat bazasini yaratish; kompleks transport bo'g'inini tashkil etish; strategik sohalarni rivojlantirish; tabiiy resurslarni saqlab qolish va atrof muhitni himoya qilish; sotsial (ijtimoiy) dasturlarni amalga oshirish; iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish va uning ochiqlik darajasini oshirish.

Mazkur hujjatga muvofiq 2015-yilda markaziy rayon bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi:

- Markaziy rayonning YaIM ini aholi jon boshiga to'g'ri kelishi - 36000 yuanni tashkil etdi;
- Ushbu rayon shahar aholisining daromadlarini aholi jon boshiga to'g'ri kelishi 24 000 yuanni, qishloq aholisi uchun esa, 8200 yuanni tasikil etdi;
- Ekin ekish maydonlari hajmi "2006-2020-yillarga mo'ljallangan yerdan foydalanishning bosh rejasidagi miqdoridan oshmadi;
- Qattiq sanoat chiqindilarini qayta ishlash darajasi -80%ni tashkil etdi;
- O'rmon maydonlarining hajmini ko'paytirish 2.3%ga ko'paydi;
- Aholiga meditsina xizmatlarini ko'rsatish 100%ga qamrab olindi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, markaziy mintaqaning o’rtacha o’sish sur’atlari 2009-2015-yillar mobaynida 13,3%ni tashkil etib, ulardagi energiya xarajatlari 1.33 tonna ko’mir ekvivalentidan 1,25 tonnagacha pasaydi. Shular qatorida, mintaqaning tashqi savdo aylanmasi hajmi mazkur yillar davomida o’rtacha 23%ga o’sdi yoki 7 punktga oshdi, bu esa, mamlakat o’rtacha darajasiga nisbatan yuqori hisoblanadi. Mintaqadagi chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 2015-yilga kelib 39742 taga yetdi, undagi jamg’arilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 1 trln doll dan oshib ketdi. Bunday holatning yuzaga kelishiga sabab, XXRsi davlat kengashi tomonidan “Xitoy markaziy rayonlariga xorijiy investitsiyalar oqinini kirib kelishini qo’llab quvvatlash bo’yicha dastur” ini qabul qilinishi bo’ldi.

Xitoy Markaziy rayonlarini rivojlanishiga jalb etilayotgan davlat sarmoyalari, asosan, davlat ahamiyatiga molik bo’lgan yirik infratuzilmalari loyihalarini amalga oshirish uchun qo’yilmoqda. Ulardagi mavjud soliq imtiyozlari va preferensiyalari “Davlat ahamiyatiga molik ochiq zonalar” chegarasida amal qilinib qo’llanilmoqda. O’z o’rnida aytish lozimki, bunday zonalar soni Markaziy Xitoyda 31taga yetdi va ular mamlakatdagi (143ta) mavjud shunday zonalarining 21,7% ni tashkil etmoqda .

Umuman olganda, Xitoyning mana shu markaziy rayonlaridagi amalga oshirilayotgan dasturiy ishlarni O’zbekistonning o’rtacha darajada rivojlanayotgan va yer osti resurslariga boy hududlarida ham dasturiy amal sifatida foydalanish mumkin deb hisoblaymiz

**TDSHI Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi ixtisosligi 2
kurs magistranti Mirsaidov M. ning “Xitoy Markaziy iqtisodiy rayonining
zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo’nalishlari” mavzusida yozilgan
ilmiy maqolasiga**

taqriz

Ma’lumki, 2010-yilning I-yarmida Xitoy hukumati o’zining “Mamlakatni markaziy qismini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada taraqqiy etish” bo’yicha davlat siyosatini va bu boradagi o’z oldiga qo’yilgan majburiyatlarini yana bir bor tasdiqladi. Mazkur hujjatda ta’kidlanganidek, sanoat ishlab chiqarishini mamlakatning ichkari rayonlariga olib kirishni (qayta dislokatsiya qilish) muhimligi shundaki, Xitoyda moddiy ishlab chiqarish raqobatbardoshligini saqlab qolgan holda, ushbu industriyani agrar rayonlarga yaqinlashtirish hamda uning natijasida, birinchi navbatda, yoqori texnologik sektordagi bandlikni o’sishini ta’minlashdan iboratdir.

Ta’kidlash joizki, yoqorida tasdiqlangan hujjatlarda ko’rsatib o’tilganidek, dengiz oldi rayonlardagi ishlab chiqarishlarni mamlakatning ichki rayonlariga ko’chirish bo’yicha davlat tomonidan belgilangan afzalliklar (ustivorliklar) va qo’llab-quvvatlanishlar Xitoy hukumatining bu borada nafaqat, ichki va dengiz oldi rayonlari orasidagi farqning chuqurlashib borayotganidan juda ham tashvishda ekanligini anglatmoqda.

Umuman olganda, Mirsaidov M. ning “Xitoy Markaziy iqtisodiy rayonining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo’nalishlari” mavzusidagi ilmiy maqolasi nafaqat, Xitoy iqtisodiyoti uchun, balki, barcha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi va shu soha bilan qiziquvchi barcha mutaxassislar hamda talaba magistrilar e’tiboriga loyiq deb o’ylaymiz va uni nashr etishga tavsiya qilish mumkin.

Ilmiy rahbar

i.f.n., dotsemt Sadibekova B.D.